

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI
SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASLALARI****Axmedov Akmal Yusufovich***FarDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi***Meliqo'ziyeva Mohinur Mansurjon qizi***FarDU Pedagogika yo'nalishi 1- kurs talabasi*

Anotatsiya: *Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasining mazmun- mohiyati ochib berilgan. Ta'lim oluvchilarda kasbiy kompetentlikni pedagogik jihatdan rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Bo'lajak o'qituvchilar uchun egallanishi mumkin bo'lgan pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan kompetensiyalar majmuasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, kasbiy kompetentlik, ta'lim, pedagog, tajriba.*

Avvalo kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarining professor- o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy -ahamiyatli bazasini daslabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir. Kompetensiya -o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarini yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Kompetentlikning asosi qobilyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobilyatlar eng umumiy ko'rinishlari bilan kompetentsiyaning jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo'quv, amaliy, ijrochilik badiiy texnik, shu bilan birga pedagogik -psixologik, ijtimoiy va boshqa ko'nikmalariga mos keladi. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna

ko‘rsatish bilan yoshlarning faolligini, his-tuyg‘usini, hatti-harakatini rivojlantirishi va ta‘sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta‘minlash, pedagogik jarayonni o‘qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta‘limiy –tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa ta‘limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak pedagoglarni amaliy, psixologik, metodik, tatqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Yevropa davlatlarini olsak an‘anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta‘lim tizimi esa bilim, ko‘nikma va malakalar darajasi bilan o‘lchanadi. Pedagogning bilish faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta‘sir, ularni izlash noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostika, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o‘quvlar guruhlarini kiritish lozim. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi-pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo‘lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Kompetent yondashuv oliy ta‘limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi.

O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta‘lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Kompetent yondashuv talabdan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. SHuni alohida ta‘kidlash lozimki, “kompetentsiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta‘riflar kasbiy ta‘lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o‘rta ta‘lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud. Kasbiy kompetentlik- mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishidir. Yangi davlat ta‘lim standartlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. CHunki oliy ta‘limda tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li oliy ta‘limda yangicha, ya‘ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etishini ta‘minlovchi omil sifatida qaraladi. Kompetentlik pedagogning ma‘lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va

tajribasini o‘z ichiga oladi. Kompetentlik-bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish. Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog‘liq.

-Ijtimoiy pedagogik kompetensiya ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarligi- bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

Kompetentlik qanday shakllanadi? Pedagogning kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang‘ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi. Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko‘rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko‘rsatib beradi. Kompetentlik nima ekanligini tushungandan so‘ng, uning darajasini aniqlash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Pedagoglarning boshqaruv kompetentligi sifatida jamoaviy ish, rahbarlik, hamkorlik, murabbiylik, rasmiy vakolatlardan foydalanish kabi mezonlar ko‘rsatadi. Kompetentlik talablariga javob bermaydigan har bir pedagogni qo‘shimcha mashg‘ulotlarga yuborib, ta’lim muassasasi faoliyatiga asoslangan treninglar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, ya’ni pedagoglarni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis, o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llay oladi. O‘zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentli o‘qituvchi birinchidan, o‘quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta’lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ikkinchidan o‘z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi. Agar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish-pedagogik muammo sifatida qaralsa, quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

1.O‘qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog‘liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta’minlash zarur.

2.Kompetentli o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mehnatida qo‘llashni bilishi kerak.

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o‘qitish texnologiyasiga katta e’tibor berilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o‘qitish texnologiyalari bo‘lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy

faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.

Bunda tashqari, bo'lajak pedagoqlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir. Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Shuni sedan chiqarmaslik kerakki, o'qituvchining nazariy tayyorgarligining mazmuni ko'p hollarda psixologik- pedagogik va maxsus bilimlar majmuasi sifatida tushuniladi. O'qituvchi tajribasi tuzilmasida ortiqcha yuk bo'lib hisoblangan va bir tizimga keltirilmagan bilimlar hech kimga kerak bo'lmagan bilimlar hech kimga kerak bo'lmagan narsa bo'lib qoladi. Shuning uchun ham bo'lajak pedagoqlarning kasbiy kompetentlikni shakllantirishda nazariy tayyorgarlikning shakllariga e'tibor qaratish zarur. Bunday nazariy faoliyat o'qituvchida analitik, loyihalash va refleksiv ko'nikmalar mavjudligini nazarda tutuvchi pedagogik fikrlashni umumlashgan holda bilishda namoyon bo'luvchi faoliyatdir. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarga tayyorligini aniqlash- kompetentli yondashuv deyiladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkin-ki, bo'lajak pedagoqlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his-tuyg'usini, hatti-harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi, har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlash, pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab oladi, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Nazarovaning "Pedagogga xos kasbiy kompetentlik" kitobi 12-14 bet
2. Yusufovich, A. A. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 224-227.
3. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 302-304.
4. Yusufovich, A. A., & Maxliyo, H. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MULOQOT ASOSIDA MUOMALA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(9), 150-157.
5. Yusufovich, A. A. (2022). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS IS THE MOST IMPORTANT CONDITION FOR INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(1), 572-586.
6. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI

ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В3), 40-46.

7. Ахмедов, А. Ю. (2022). БЎЛАЖАК ПСИХОЛОГЛАРДА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 220-222.

8. Ахмедов, А. Ю. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ АЖРАЛМАС ҚИСМИ БЎЛГАН КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 8).

9. Axmedov, A., & Egamberdiev, O. (2022). БЎЛАЖАК ИНГЛИЗ ТИЛИ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В4), 132-135.